

6. M. X. Mirjamolov, L.B.Sobirova. Adaptativ va sog‘lomlashtiriah jismoniy tarbiyasi. Darslik. Chirchiq- 2021. 90-b.

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR  
SOCIAL STUDIES

UO‘K: 94 (930.24)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8596-4084>

## O‘ZBEKISTON TARIXINING MAHALLIY MANBALARIDA XRONOLOGIK VA METROLOGIK MA‘LUMOTLAR MASALASI

*Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna*

*Termiz davlat muhandislik va agratexnologiyalar universiteti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi*

*E-mail: [termination529@gmail.com](mailto:termination529@gmail.com)*

*Tel: +998885533555*

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston tarixining islomgacha bo‘lgan davrida qo‘llanilgan yozuv tizimlari, taqvim, hamda iqtisodiy va savdo aloqalarida ishlatilgan o‘lchov birliklari haqida so‘z yuritiladi. Sug‘d, Xorazm va Baqtriya yozuvlari asosida yaratilgan mahalliy manbalar, ularning ahamoniylar davrida shakllangan oromiy yozuvi bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Shuningdek, Tupproqqal’a va Qoyqirilganqal’a kabi arxeologik topilmalardan olingan ma‘lumotlar asosida qadimgi davr o‘lchov birliklarining (mari, hin, griv) iqtisodiy hayotdagi ahamiyati yoritilgan. Ayni paytda, Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asaridagi Xorazm taqvimi haqida keltirilgan ma‘lumotlar asosida qadimgi madaniyatning xronologik tizimi ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** sug‘d yozuvi, xorazm yozuvi, baqtriya yozuvi, oromiy alifbosi, qadimgi taqvimlar, o‘lchov birliklari, mari, hin, griv, Tupproqqal’a hujjatlari, Xorazm taqvimi, ahamoniylar davri metrologik tizimlari.

## THE ISSUE OF CHRONOLOGICAL AND METROLOGICAL INFORMATION IN LOCAL SOURCES OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN

**Abstract.** This article discusses the writing systems, calendars, and units of measurement used in the pre-Islamic period of Uzbekistan's history. Local sources based on the Sogdian, Khorezm, and Bactrian scripts are studied, and their connection with the Aramaic script formed during the Achaemenid period is studied. Also, based on information obtained from archaeological finds such as Tupproqqala and Qoykirilganqala, the importance of ancient units of measurement (mari, hin, griv) in economic life is highlighted. At the same time, the

chronological system of ancient culture is also analyzed based on information about the Khorezm calendar in Abu Rayhan Beruni's work "Osar ul-baqiya".

**Keywords:** Sogdian script, Khorezm script, Bactrian script, Aramaic alphabet, ancient calendars, units of measurement, mari, hin, griv, Tupproqqala documents, Khorezm calendar, metrological systems of the Achaemenid period.

## **ПРОБЛЕМА ХРОНОЛОГИЧЕСКОЙ И МЕТРОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ В МЕСТНЫХ ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

**Абстрактный.** В статье рассматриваются системы письма, календари и единицы измерения, использовавшиеся в экономических и торговых отношениях в доисламский период истории Узбекистана. Будут изучены местные источники, основанные на согдийской, хорезмийской и бактрийской письменности, а также их связь с арамейской письменностью, сформировавшейся в период Ахеменидов. Также на основе информации, полученной в результате археологических раскопок, таких как Туппроккала и Койкырылганкала, подчеркивается важность древних единиц измерения (марий, хин, гривна) в экономической жизни. При этом хронологическая система древней культуры также анализировалась на основе сведений о хорезмийском календаре, представленных в «Осар уль-Бакийя» Абу Райхана Беруни.

**Ключевые слова:** согдийское письмо, хорезмское письмо, бактрийское письмо, арамейский алфавит, древние календари, единицы измерения, мари, хин, грив, документы Туппроккалы, хорезмийский календарь, метрологические системы ахеменидского периода, анализ.

**KIRISH.** O‘zbekiston tarixining islomgacha bo‘lgan davri o‘tmishini o‘rganishda mahalliy aholi orasida amalda bo‘lgan sug‘diy, xorazmiy va baqtriy tili hamda yozuvda bitilgan, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan ayrim yodgorliklarning alohida o‘rni bor. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan manbashunoslik tadqiqotlar tufayli O‘rta Osiyo mintaqasi qadimgi xalqlari ijtimoiy hayotining turli sohalarini qamrab oladigan tarixiy ma‘lumotlarni olish imkoni kengaydi. Bu tadqiqotlar orasida mintaq xalqlari hayotida amalda bo‘lgan taqvim, xo‘jalik va savdo munosabatlarida qo‘llanilgan o‘lchov birliklari haqidagi ma‘lumotlar arablar bosqiniga qadar mavjud bo‘lgan xronologik va metrologik ma‘lumotlar muhim ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA** Maqolada arablar bosqiniga qadar mavjud bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlari hayotida amalda bo‘lgan taqvim, xo‘jalik va savdo munosabatlarida qo‘llanilgan o‘lchov birliklari haqidagi ma‘lumotlar Abu Rayhon Beruniy asarlarida, M.Ishoqov, Yu.A.Rapoport kabi olimlarning tadqiqotlarida hamda o‘zbek va rus tilidagi ensiklopedik to‘plamlarda keltirilgan. Biroq, bu masalani chuqur va yaxlit tarzda tadqiq etish tariximizdagi muhim ihatlardan hisoblanadi. Maqola mohiyati tadqiqotchilarning fikrlarini o‘zaro solishtirish va ensiklopedik ma‘lumotlarni o‘rganish orqali qiyosiy tahlil qilgan holda tarixiylik, izchillik kabi ko‘plab metodlar orqali ochib berilgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR** Agarda jahondagi ilk imperiya hisoblangan Ahamoniylar saltanatining dastlabki hukmdorlari davrida Eronda mixxat yozuvlari keng yoyilgan bo‘lsa, mil. avv. V-IV asrlariga kelib oromiy tili va yozuvi imperiyada ma‘muriy boshqaruv va ish yuritish tiliga aylangan. Qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona va Xorazmda oromiy alifbosi asosidagi mahalliy tillarning yozuvlari ham shakllana boshlaydi. Shuningdek, mahalliy va oromiy tillarning bir-biriga ta‘siri kuchaygan, oromiy tiliga turli mahalliy ma‘muriy atama va iboralar o‘zlashgan. Shu sababli mil.avv. V-IV asrlardan mintaqamizda bitilgan va zamonamizgacha saqlanib qolgan baqtriy, sug‘diy va xorazmiy tili va yozuvidagi bitiklar oromiy tili va yozuvi bilan umumiylik kasb etadi.

1976-1977-yillarda Qadimgi Xorazmning ko‘hna yodgorligi hisoblangan Katta Oybo‘yirqal‘adan topilgan, mil.avv. VI-V asrlarga oid bo‘lgan xum sirtiga bitilgan qisqa oromiy yozuvi mintaqa xalqlarining qadimgi tarixiga oid bo‘lgan eng qadimgi yozuv sifatida e‘tirof etiladi. Mintaqa tarixiga doir qadimgi forsiy manbalar bilimdoni V.A.Livshits ushbu yozuvni “mry XI h III.III.III”, ya‘ni “11 mari 9x” deb o‘qigan[1, B. 34]. Shuni alohida qayd etish kerakki, “mari” suyuqlik hajm o‘lchovi birligi sifatida qadimgi davrda tarixiy-geografik jihatdan keng makon - Messopotamiya, Old Osiyo, Eron hududlarida amalda qo‘llanilgan yoki, hech bo‘lmasa shu hududlarda yashovchi xalqlarga yaxshi ma‘lum bo‘lgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, qadimda amalda bo‘lgan “mari” 16,5-17 litrga teng suyuqlik o‘lchov birligi sifatida belgilangan. Qazishmalar davomida topilgan va qayta tiklangan xumning sig‘imi qariyb 200 litrga yaqinligi e‘tiborga olinsa, ushbu yozuvda gap Qadimgi Xorazmning yirik markazlaridan biri bo‘lgan Oybo‘yirqal‘a xo‘jaligiga atrof hududlardan keltirilgan, hajmi aniq belgilab qo‘yilgan yoki kirim qilingan ichimlik xaqida borayotganligi ayon bo‘ladi. Shu o‘rinda, tadqiqotchi V.A.Livshits tomonidan aniqlangan “11 mari 9x” yozuviga yanada aniqlik kiritiladigan bo‘lsa, ushbu yozuvni “9 karra mari” deb o‘qilsa maqsadga mkvofiqdir. Zero, 16,5-17 litr suyuqlikning 9 baravari miqdoridagi ichimlik 200 litr sig‘imga ega bo‘lgan xumga jo bo‘lishini hisobga olsak, xum sirtidagi yozuv bejizga tushirilmaganligini isbotlaydi. Shuni qayd etish kerakki, mari butun Ahamoniylar saltanatida amalda bo‘lgan suyuqlik sig‘imi hisoblangan.

Mil. avv. III asrga kelib Tuproqqal‘a ko‘hna yodgorligi Qadimgi Xorazmning iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Tuproqqal‘a xarobalarini tadqiq etish davomida ko‘plab arxeologik topilmalar bilan bir qatorda yog‘och va teri(charm) ashyolari yuzalariga bitilgan yozuvlar ham qo‘lga kiritilgan. Tadqiqotlar natijasida bu yozuvlarning shahar xo‘jalik hayotiga oid hujjatlar ekanligi aniqlangan[2, B. 153]. Charmga bitilgan yozuvlardan biri tadqiq etilganda, hujjatda omborga natural soliq sifatida un keltirgan shaxslar ro‘yxati keltirilganligi aniqlangan. Manbaning metrologik ma‘lumotlar nuqtai nazaridan ahamiyatli tomoni shundaki, soliq sifatida un mahsulotini hin o‘lchov birligi asosida topshirganliklari qayd etilgan. Hin oromiy tili va yozuvida qadimgi davrda Old Osiyo mamlakatlarida og‘irlik o‘lchovi birligi sifatida 5-6 kg vaznga teng bo‘lgan. Tuproqqal‘a hujjatida keltirilgan shaxslardan omborga kirim qilingan un

miqdori esa 13 hindan 200 hingacha bo‘lganligi aniqlangan. Tadqiqotchi M.Ishoqovning fikricha, miqdorlar o‘rtasidagi farqning bu qadar kattaligi soliq to‘lovchi xo‘jaliklarning katta-kichikligiga bog‘liq bo‘lishi mumkin[1, B. 35]. Shuningdek, hujjatlarda omborga topshirilgan sharob ichimligi g`riv (g`riv) o‘lchov birligida qabul qilinganligi aniqlangan, g`riv o‘lchov birligi esa 8,7-9,7 litrga to‘g‘ri kelgan. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, Qadimgi Xorazmning turli yodgorliklaridan topilgan va tadqiq etilgan yozma manbalarda tilga olingan o‘lchov birliklari – mary, hin, g`riv xo‘jalik hayotida keng qo‘llanilganligini hisobga olsak, nafaqat suyuqlik, balki og‘irlik va boshqa o‘lchov birliklari tizimli ravishda amalda bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Agar mary 16,5-17 litr, g`riv 8,7-9,7 litrga teng o‘lchov birligini anglatganligini e’tirof etsak, o‘z navbatida o‘lchov birliklari qadimgi davrda aniq bir tizim asosida oromiy tili va yozuvi keng tarqalgan makon – Ahamoniylar saltanatida, qolaversa, salatanat parchalanganidan keyingi davrlarda O‘rta Osiyo hududlari aholisi orasida uzoq muddat qo‘llanilgan deb hisoblashga asos bo‘ladi.

Qadimgi Xorazm tarixiga doir mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning muhim asari “Osor ul-boqiya”da xorazmliklarning islomgacha bo‘lgan davrda amalda bo‘lgan taqvim haqida qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi. Abu Rayhon Beruniy ma’lumotlariga ko‘ra, Qadimgi Xorazm taqvimi Quyoshning yillik ko‘rinma harakatiga bog‘liq tropik yilga asoslangan. Taqvim 365 kundan iborat bo‘lib, har biri 30 kunlik 12 oyga taqsimlangan. Oylarning nomlari esa quyidagicha belgilangan:

1. Navsorjiy.
5. Hmdod. 9. Arv.
2. Ardvst. 6. Axshrivriy. 10. Rimjd.
3. Hrvdod. 7. Avmriy. 11. Arshmn.
4. Jiri. 8. Yonoxn. 12. Isfandorajiy.

Xorazmliklarda oy haftalarga taqsimlanmagan, kunlar esa zardushtiylik ta’limoti ma’budlarining nomlariga bog‘liq holda atalgan:

1. Rimjd.
2. Azmin.
3. Ardusht.
4. Axshriviriy.
5. Isfandormajiy.
6. Hrvdoz.
7. Hmdoz.
8. Dzv.
9. Arv.
10. Yonoxn.
11. Axir.
12. Moh.

13. Jizi.
14. G‘vsht.
15. Dzij.
16. Fig‘.
17. Asrvf.
18. Rshn.
19. Rvjn.
20. Arig‘n.
21. Rom.
22. Voz.
23. Dzu.
24. Diniy.
25. Arjvxiy.
26. Ashtoz
27. Asvon.
28. Ros.
29. Mrsnbd.
30. Avnrg‘.

12 oydan ortib qolgan 5 kun xuddi misrliklar kabi yil oxiriga kiritilgan. Xorazmliklar bu 5 kunga alohida nom bermaganlar, balki, ularni oyning dastlabki besh kuni nomlari bilan ataganlar, ortiqcha 5 kun tugaganidan so‘ng yangi yill-oyning 1-kunidan boshlangan.

Qadimgi Xorazmning Quyosh harakatiga asoslangan taqvimi mintaqada islom dini keng yoyilgan davrda ham musulmonlarning Oy harakatiga asoslangan hijriy-qamariy taqvim bilan birga uzoq vaqt davomida qo‘llangan. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning quyidagi ma‘lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi: “Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq xorazmliklar oylarini kabisa qilishda xalifa al-Mu‘tazid billoh yo‘lidan bordi. Munajjimlar unga xorazmcha oylarning boshlarini rumliklar va suryoniylar oylarining aniqlangan kunlariga qo‘yishdan afzalroq hiyla yo‘q, shunda xorazmcha oylar ularniki singari kabisa bo‘ladi, dedilar”[3, B. 66].

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, yilning uzunligi 365 kun va kun(sutka)ning  $\frac{1}{4}$  ga teng ekanligidan kelib chiqib, eronliklar ortiqcha chorak kunni har 120 yilda 13-oy sifatida kabisa yili etib belgilaganlar. Biroq xorazmliklarning kabisa yilini qanday yuritganliklari xaqida ma‘lumotlar saqlanmagan. Biroq, Qadimgi Xorazmning yirik tarixiy yodgorliklaridan biri bo‘lgan Qo‘yqirilganqal’a (mil.avv. V-IV asrlar) xarobalaridan topilgan sopol usturlob qismlari xorazmliklarning qadimdan astronomik kuzatishlar olib borganligidan dalolat beradi[4, B. 12]. Demak, xorazmlik olimlarga yilning to‘liq uzunligi yaxshi ma‘lum bo‘lgan, o‘z navbatida taqvimga ham vaqti-vaqti bilan o‘zgarishlar kiritib borilgan. Buyuk mutafakkir asari orqali xorazmliklarning qadimgi taqvimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lsakda, taqvimdagi oy va kunlarning qanday talaffuz etilganligi afsuski haligacha noma‘lumligicha qolmoqda. Buning

asosiy sababi esa Qadimgi Xorazm yozuvining bizgacha saqlanib qolgan bitiklari qiyosiy tilshunoslik usullari bilan tiklanadigan o‘lik tilda ekanligi hamda ushbu topilmalarning to‘liq bo‘lmagan, uzuq-yuluq parchalardan iborat ekanligidadir.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /CONCLUSION).** Yuqorida aytib o‘tilganidek, bunday tadqiq faqat o‘lchov usuli yordamida emas, balki kuzatishlar, tajribalar va tavsiflar yordamida amalga oshiriladi. Odatda o‘lchov davomida olingan ma’lumotlar raqamlar yoki matematik formulalar bilan ifodalanadi. Shunday qilib, raqamlarning o‘lchamini, har qanday jarayon tezligini, har qanday qurilma kattaligi va quvvatini tasvirlash oson. Ushbu yoki boshqa raqamni ko‘rgan odam, kerakli jarayonlar yoki ob’yektlarning boshqa xususiyatlarini osongina tushunishi va ularni ishlatishi mumkin. Bu bilimlar kundalik hayotda bizga yordam beradi. Agar biz batafsilroq ma’lumotga ega bo‘lsak, yanada kengroq miqyosda ma’lumotni o‘lchashga bog‘liq ekanini tushunish qiyin emas. Darhaqiqat, “o‘lchov” so‘zining ma’nosi juda katta va qo‘llash doirasi juda keng. Turli mamlakatlarda o‘lchovlar va miqdorlar tizimi mavjudligi haqidagi da’vo ham to‘g‘ri. Ularning nomlanishida farq bo‘lishi mumkin va har qanday birliklarni hisoblash uchun ma’lumot va formulalar mavjud bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘lchovlar haqidagi bilim doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Исҳоқов М. Тарихни тилга киритган ёзув. // Фан ва турмуш. 1-3/2006. – Б. 32-37.
2. Рапопорт Ю.А. Некоторые итоги изучения дворца на городище Топрак кала// Культура и искусства Древнего Хорезма/ ТХАЭЭ. Том V. – М.,1981. – С. 148-156.
3. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Osor ul-boqiya”) asarning o‘zbek tilidagi nashridan (Abdufattoh Rasulov tomonidan tarjima qilingan). – Toshkent: “Fan”, 1968. – 372 b.
4. Кой-крылган кала – памятник культуры Древнего Хорезма IV в. до н.э.-IV в н.э. – М.: Наука,1967. – 348 с.